

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'lifni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lif olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari xaqida.....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatları va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari .....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lif jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lif jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lif olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limininig bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lif jarayonida mobil ta'larning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'rada zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari .....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

**BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METOLOGIK ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ  
ЛИНГВОКОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПЕРЕВОДЧИКОВ**

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING LINGUISTIC AND  
COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE TRANSLATORS**

**Abduraximova Umida Shuxratovna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Abduraximova Umida Shuxratovna**

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

**Annotasiya**

*Ushbu maqolada bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari taraqqiyotining muhim omili ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilangan.*

**Аннотация**

В данной статье изложено мнение о том, что развитие языковой, культурологической и коммуникативной компетентности будущих переводчиков является важным фактором развития педагогических и психологических основ.

**Abstract**

*This article describes the opinion that the development of linguistic, cultural and communicative competence of future translators is an important factor in the development of pedagogical and psychological foundations.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik-psixologik, lingvomadaniy, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzlusiz ta'lif, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'lif standartlari, Ta'lif va tarbiya, ilmiy-metodik.

**Ключевые слова:** педагогико-психологический, лингвокультурологический, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методический.

**Key words:** pedagogical-psychological, linguistic and cultural, modern outlook, social necessity, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, Education and training, scientific-methodical.

**KIRISH**

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri kadrlar tayyorlash tizimini tubdan o'zgartirishdan iborat bo'lib, ta'lif jarayonining hamma bosqichlarida, uzlusiz ta'lif tizimi ta'lif muassasalarining barcha shakl va turlarida ilg'or metodik ta'limga, zamonaviy ilmiy yutuqlarga hamda ijtimoiy tajribalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'lif tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Azal-azaldan bir-biriga qardosh-qarindosh, do'st, birodar bo'lib kelgan xalqlarimiz, ota-bobolarimiz til o'rganishgan, o'zaro madaniyatlar ayirboshlashgan. Xalqlarning ma'naviy tarafdan bir-birlarini boyitishlari evaziga tamaddun qaror topgan. Bunda, san'at asarlari, adabiyot namunalari, buyuk dahlarning ilg'or qarashlari, kishilarning erkinligi, tengligi g'oyalarini tarqatuvchilar sanalmish tarjimonlarning roli bebahodir. Tarjimaga o'qitish faqat sof amaliy, ya'ni o'quvchilarda zarur tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirish bilangina ahamiyat kasb etmaydi. U, shuningdek, muhim umumlingistik va umumta'limiyl majburiyatlarni ham bajaradi.[1] Tarjima bilan shug'ullanish o'quvchilarda semantikaning nozik jihatlari va til birliliklarning qo'shimcha ma'no beradigan jihatlariga e'tibor qaratish ko'nikmasini shakllantiradi, tillarning tizimli tashkil etilishi va ishlatalishining o'ziga xosliklari, har bir til yordamida "dunyo manzarasi" xususiyatlari, turli tillar jamoalari vakillari madaniyati va fikrlashidagi umumiyl va o'ziga xos jihatlarni ochib beradi. Tarjimonlik vakolatini yaratish bo'lajak tarjimonlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi: ularda hushyorlik va mas'uliyat hissi, ma'lumotnomha va qo'shimcha axborot manbalaridan foydalanish, tanlash, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, qo'shimcha lingvistik ma'lumotlarni olish va taqqoslash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods). Tarjimonning professional tayyorgarligi yuksak madaniyat, qomusiy bilim, uni muntazam to'ldirib borish, keng qamrovli qiziqishlar kabi sifatlarni talab etadi. Shunday sifatlar ikki tilda va ikki xil madaniyatni o'rganishda sayqallashadi. Zero, ikki xalqning madaniyatini to'laqonli anglab olmasdan pragmatik tarjimaga erishish mushkul vazifa bo'lib qolaveradi. Har qanday o'quv yo'nalishi mundarijasi, o'rganilayotgan predmetning

## PEDAGOGIKA

o'ziga xos xususiyatlari o'qitishning pirovard maqsadi bilan belgilanadi. Tarjimonlik faoliyati qonun-qoidalarini tarjimonlar tayyorlash dasturi asoslariga kiritilgan tarjima nazariyasi o'rganadi.[2]

Lekin tarjima kurslarining asosiy vazifasi talabalarga bir qancha bilimlar yig'indisini berishdangina emas, balki ulardan tarjimalarni professional darajada bajara oladigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Shuning uchun ham kurslarning kattagina qismi professional tarjima mahorati va ko'nikmalarini rivojlantirishga, tarjimonlik strategiyasi va texnikasi unsurlarini egallahsga, murakkablik darjasini turlicha bo'lgan matnlarni o'girish bo'yicha tajriba to'plashga bag'ishlanadi.

Tarjimaga o'qitishni tashkil etish va uni o'qitish usullarini ishlab chiqish bir qator asl farazlar qabul qilinishi bilan shartlanadi:

- tarjima aqliy faoliyatning murakkab va ko'p qirrali turi bo'lib, u turli maqsadlarni ko'zlashi, har xil sharoitlarda, turli yo'llar bilan va ko'plab unsurlar ta'sirida amalga oshirilishi mumkin;

- har qanday faoliyat singari tarjimanining ham amalga oshishi uchun o'qitish jarayonida hosil qilinishi lozim bo'lgan muayyan bilim, mahorat(ma'lum bir harakatni ongli ravishda bajarish) va ko'nikma(ma'lum bir harakatni yarim ixtiyoriy va beixtiyor(avtomatik) ravishda bajarish) talab etiladi;

- tarjimonlik faoliyati tarjimon tomonidan ongli ravishda(tahlil va asoslangan xulosalar yordamida) yoki intuitiv ravishda amalga oshirilishi mumkin. Faoliyatning ongli va intuitiv ko'rinishlari orasidagi nisbat har xil tarjimonlarda har xil matnlarni turli sharoitlarda o'girish asnosida turlicha bo'ladi. Ongli va intuitiv o'girish qobiliyati(tarjimonlik vakolati) o'qitish va amaliyot jarayonida rivojlanib boradi;

- tarjimonlik vakolatining amalga oshishi tarjimonning til bilan bog'liq shaxsxi ishtirokida ro'y beradi. Buning uchun tarjimonda har tomonlama kognitiv va lingvistik bilim, keng ko'lami umummadaniy zukkolik, zarur ruhiy sifatlar va iste'dod bo'lishi lozim. Bunday sifatlar tarjimaga o'qitish davomida rivojlanib va rag'batlantirilib borishi kerak;

- tarjimaga o'qitish vazifasi tarjimon har qanday vaziyatda beixtiyor qo'llay olishi mumkin bo'lgan qandaydir me'yor, qoida va reseptlarni o'zlashtirish emas, balki tarjima qoidalari, uslub va usullarini egallah, ularni tanlay bilish, muayyan sharoitlarda turli matnlarga nisbatan, turli maqsadlarda turlicha qo'llay olishdadir. O'girish jarayonida tarjimon tomonidan hal etiladigan masalalar barchaga ma'lum usul va qoidalarni qo'llash imkonini beruvchi bir qolipdag'i yoki tarjimonlik strategiyasining umumiyl qoidalari asosida matnda yashiringan ma'no va tegishli vaziyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda yangicha yechim topishni talab etadigan darajada individual bo'lishi mumkin. Yechim qidirish ma'lum qoida va usuldan foydalanish imkoniyati haqidagi, uning o'zgaradigan yoki odatiy, qolipli yechimidan voz kechib, noyob, okkazional yechimni tanlash zarurati haqidagi xulosalardan iborat bo'ladi;

- tarjimonlik faoliyati ob'yekti asl matndagi axborot hisoblanadi. Matn (xabar) mundarijasi semantik va shakliy qismlari bir-biri bilan bog'liq. Biroq uzviylik turlicha ahamiyat kasb etuvchi tugallangan bir butun ko'rinishda namoyon bo'ladi. Butun va uning bo'laklari orasidagi bog'liqlik tarjima jarayonida turlicha namoyon bo'ladi. Matnning alohida unsurlarini o'girishda muhimligiga qarab nisbatan aniq va to'laqonli ifoda yuzaga kelishi mumkin. Shu ma'noda bir butun alohida qismlariga nisbatan ahamiyatlroq bo'lishi (bo'imasligi ham) mumkin;

- matnni tashkil etuvchi til birliklari o'z-o'zicha tarjima ob'yekti bo'la olmaydi, ammo matn mundarijasi, matnda ma'lum bir til vositalarining uchrashi ular orqali yuzaga keladi, semantik ahamiyatga ega bo'ladi, tarjima vazifasining xarakterini aniqlay olishi va tarjima uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu ma'noda til birliklari ahamiyatini tarjima jarayonida matnning ulkan mundarijasidagi bir bo'lak sifatida ifodalash muammosi mavjud bo'ladi;

- ko'rsatilgan nisbat tarjimaga o'qitishda foydalaniladigan o'quv tarjimani professional tarjimonning ish sharoitlariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quv maqsadlarda ma'lum bir qolipdag'i tarjima qiyinchiliklari va masalalarini, iloji boricha, kichik qismda ajratib ko'rsatish imkonini beradigan matnning ayrim bo'laklaridan, ba'zi ifodalardan foydalanish mumkin;

- tarjimaga o'qitish jarayonida foydalanilayotgan o'quv materiali(matn, ifoda, so'z)ni o'girish usullari emas, balki tipik tarjima masalalarini yechish usullari va individual ijodiy yechimlar qidirish strategiyasi o'rganilishi lozim. Shu ma'noda tarjimaga o'qitish o'quv materialda tipik tarjima masalalarini ajrata bilish va ularni yechishning umumiyl qoidalari va xos usullarini shakllantirishni talab qiladi. Turli xil tarjimalarda umumiyl qoida va usullar bilan birga, har bir tur uchun mos keladigan maxsus usullar ham qo'llanishi mumkin.[4]

Umuman olganda, tarjima qilinadigan materiallarning yuqorida keltirilgan konkret turlarini aytish bilan birga shuni alohida ta'kidlash joizki, pragmatik aspektni hisobga olish ekvivalentam leksika deb nomlanadigan atoqdi otlar, geografik nomlar va turli xil madaniy-maishiy realilar tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, asliyatdag'i matnda implisit(asliyat tili egasiga uning "dastlabki bilimi" ning bir qismi sifatida ma'lum bo'lgan), ya'ni tarjima tili egalari uchun mavxum shaklga ega bo'lgan axborot tarjima tilida eksplisit(aniq, tushunarli), ya'ni konkret tarzda ifodalanadi. Qiyo'slang:

"Where you girls from?" I asked her again... "Seattle, Washington..." (J. Salinger, The Catcher in the Rye, 10) – "Qizlar, sizlar qayerdansizlar?", - deb takror so'radim. "Sietidan, Washington shtatidan". Turli tillardagi lisoniy birliklar har doim ham bir-birini to'la-to'kis almashtira olmaydi, bir tilga xos bo'lgan so'z ikkinchi tilda mavjud bo'imasligi mumkin. Masalan kuyidagi misolni ko'rish mumkin, "A prison on Robben Island" so'zini o'zbek tiliga tarjima qilganda uning asliyatdag'i ma'nosini berish, ya'ni pragmatik tarjimaga erishish uchun tarjimon ba'zi lisoniy vositalardan foydalanadi va uni "Roben Aylenddag'i qamoqxona" deb emas, balki "Robben Aylend orolidagi qamoqxona" deb tarjima qiladi, Bu yerda asliyatda aks etgan ma'no o'zbek reseptori(kitobxon)ga tushunarli bo'lishi uchun "orol" so'zi ko'shilgan.[5:140]

Tarjima tilida so'zlashuvchilarga noma'lum, ammo asliyat tilida so'zlashuvchilarga ma'lum bo'lgan bu kabi ma'lumotlarni o'zida mujassam qiladigan qo'shish tarjimadagi odatiy tarzda ishlatiladigan uslub bo'lib, undan kutilgan maqsad tarjima qilingan matnni tarjima tilida so'zlashuvchilarga imkon boricha tushunarli bo'lishiga erishishdir. It was Friday and soon they'd go out and get drunk. (J. Brain, Room at the Top) -Juma- maosh beriladigan kun. Hech qancha vaqt o'tar-o'tmas bu odamlar ko'chaga chiqishib, kayfsafo qilishadi. Keltirilgan ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, Angliyada maosh har haftaning juma kunida berilishini har bir ingliz kishisi biladi, ammo har qanday o'zbek kitobxoni ham buni bilmasligi mumkin. Shuning uchun, tarjimada maosh beriladigan kun jumlesi ko'shilgan. Demak, tarjimada qo'shiladigan so'zlarga, odatda, asliyat tilida so'zlashuvchi kishilarga ma'lum bo'lgan axborot tarjima tili kitobxoniga noma'lum bo'lishi mumkinligi uchun zaruriyat tug'iladi. Tarjima amaliyotida, extimol, ko'shish va tushirib qoldirishdan ham ko'proq tarjima tilida so'zlashuvchi kitobxonga asliyatda bevosita ifodalanmagan, ammo unga ozmi-ko'pmi tushunarli bo'lgan u yoki bu informatsiyani yetkazish usuli sifatida almashtirish metodi ham ishlatiladi. Misol tariqasida amerikalik tarixchi va jurnalist U. Shirerning "The Rise and Fall of the Third Reich" asaridan quyidagi parchani olaylik: The jubilant Prime Minister faced a large crowd that pressed into Downing Street. After listening to shouts of "Good old Neville", Chamberlain spoke a few words from a second-storey window in Number 10. (Ch. 12).

### NATIJALAR

Tarjima asliyatdag'i axborotni kitobxonga tushunarli tarzda yetkazish jarayoni bo'lib, kitobxon matnni o'qib axborotni qabul qiluvchiga aylanadi hamda unda matnda ifodalangan axborotga nisbatan muayyan bir munosabat hosil bo'ladi. Bu munosabat pragmatik munosabat deb ataladi. Bunday munosabatlar turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni kitobxon uchun qiziqarli bo'Imagan yoki unda kuchli emotsiyonal ta'sir uyg'otgan axborotlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Matning axborot qabul qiluvchiga ko'rsatgan bunday kommunikativ ta'siri matnning kommunikativ aspekti yoki salohiyati deb yuritiladi.[7:56] Matnning pragmatik salohiyatini muallif tomonidan tanlangan til ifoda vositalari: leksik, sintaktik va stilistik birliklar tashkil qiladi. Asliyat matni o'zining kommunikativ maqsadiga mos keluvchi axborotni ta'sirchan qiladigan til vositalarini tanlaydi. Natijada bunday maqsadda yaratilgan matn muayyan pragmatik salohiyatga ega bo'ladi va u axborot qabul qiluvchiga kommunikativ ta'sir kiladi. Matning pragmatik salohiyati axborotning mazmuni va shakli bilan ifodalaniib, ular avvaldan tilda mavjud bo'lgan ifoda vositalaridir va muallif ulardan o'rinni foydalanadi xolos.

Kitobxonning axborotga nisbatan paydo bo'ladigan pragmatik munosabatlari matngagina emas, balki uning shaxsiga, hayotiy tajribalariga, bilimlariga, ruhiy holatiga ham bog'liqidir. Matnning pragmatik va kommunikativ ta'siri turli saviyadagi kishilarga turlicha ta'sir qilishi orqali belgilanadi. Shunday ekan asliyatga mos keladigan pragmatik munosabatni o'rnatish tarjimonning qanday til vositalarini tanlashiga bog'liq.

Tarjima jarayonida tarjimon asliyatdag'i voqe'a-hodisalarni kitobxonga tushunarli bo'lgan til vositalari orqali qayta yaratishga intiladi. Bunda u kitobxonning asliyatga nisbatan butunlay boshqa tilga mansub ekanligini, o'zgacha madaniyat va tarix vakili ekanligini unutmasligi kerak.[8:108]

Ma'lumki, har qanday badiiy asar birinchi navbatda shu asar yozilgan tilda so'zlashuvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. Shu sababli unda aynan shu xalqqa mansub bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmush tarziga, kiyim-kechaklariga, taomlariga va shu kabilarga oid voqealar bayon qilinadi. Tarjimon bunday asarni tarjima qilishga kirishar ekan, asliyat va tarjima tilidagi bunday nomufovfigliklarni xisobga olib, tegishli o'rinnlarda o'zgartirishlar va qo'shimchalar qo'shishiga to'g'ri keladi. Tarjimada pragmatik salohiyatning qanchalik to'g'ri aks ettirilganligi badiiy asarning kitobxonga ta'sir kuchi, uning badiiy qimmati, o'ziga ko'plab kitobxonlarni jalb qila olishi bilan belgilanadi. Bunday matn tarjimasining pragmatik vazifasi tarjima tili matnida ham xuddi asliyatdagidek kitobxonda badiiy-estetik ta'sir uyg'ota oladigan matn yaratishdir. Xullas, tarjimada pragmatik salohiyatning aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ko'proq tarjimonning kerakli o'rinnlarda tegishli leksik sintaktik birliklarni qo'llay olishiga bog'liqidir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimada pragmatik uyg'unlikka erishish uchun tarjimonidan asliyat matnida ifodalangan har bir holat va narsani yaxshi bilishni, ya'ni chuqrur

## PEDAGOGIKA

ekstraliningistik bilimga ega bo'lish talab qilinadi, zero, ekstraliningistik faktorlarni xisobga olish asliy monand tarjimaga erishish garovidir.

Xalqaro munosabatlar amaliyotida dunyo tillarining oltitasi yetakchilik qilishi e'tirof etilgan. Ulardan biri shubhasiz ingliz tili bo'lib, u to't yuz million kishi uchun ona tili hisoblanadi. Bundan tashqari, uch yuz millionga yaqin kishi ushbu tildan millatlararo munosabatlar vositasi sifatida foydalanadi. Jahonning yana bir yarim milliard aholisi o'z ishi va hayotida ingliz tilini ikkinchi yoki uchinchi til sifatida qo'llaydi.

Tilni professional darajada o'zlashtirib, tarimon bo'lib ishlash deyarli keng yoritilmaydigan, o'ziga xos va yetarlicha nozik masaladir. Tarjimonlik kasbi – dunyoda juda keng tarqalgan eng ijodiy kasblardan birdir. Ommaviy axborot vositalarida tarjimonlar haqida juda kam yoziladi (gapiriladi). Shuning uchun ham, odatda, ushbu kasb to'g'risida hammada har xil, aksariyat hollarda yanglish tasavvurlar shakllanadi.

Tarjima qiyofasi turli-tuman bo'lib, unda reklama matnidan shifikorlar qo'llaydigan atamalarga, olim kishining falsafiy mulohazalaridan chim ustida o'ynaladigan xokkeyning xalqaro matchiga oid e'tiroz muhokamasiga va shu kabi cheksiz mavzularning biridan ikkinchisiga o'tishga to'g'ri keladi. Bu esa professional tarjimonidan nafaqat tilga, balki og'zaki nutqqa oid bilimlarga ham ega bo'lishni talab qiladi.

Ehtimol bu kasb aytaylik geolog yoki sinovchi-uchuvchi kasbidek romantik kasb emasdir biroq, qiziqarligi jihatidan muhandis yoki me'mor kasbidan qolishmaydi. Hech qanday kasb sizga urushdan tortib ilmiy seminargacha bo'lgan vaziyatlarda prezidentlardan tortib oddiy dehqonlarnigacha kuzatish, ko'plab mamlakatlarga borish, juda ko'p xalqlarning urf-odatlari, an'ana va tamoyillari bilan tanishish imkoniyatini bermaydi.

Tarjima-juda murakkab ishdir. Sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan avtomatik tarjima tizimlari paydo bo'lib borishiga qaramay tarjima har doim ijodiy ish bo'lib kelgan va shundayligicha qoladi. Agar kishi tarjima haqidagi zaruriy ma'lumotlarning loaqlal minimumidan boxabar bo'lsa, tarjima oldida turgan vazifa yechimini yengillatishi mumkin, zero ushbu minimum tarjimonga vazifani to'liq anglab yetish, tarjima qila olishiga doir real qobiliyatini to'g'ri belgilash imkoniyatini beradi. Buning uchun professional tarjimonlarda shakllangan ko'nikma va usullarni o'zlashtirish, shuningdek, tarjima byurolari xizmatlaridan unumli foydalanish darkor. Materialni bayon etish uslubi, yo'sini, shakli va tarzi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mohir tarjimonlarning mehnati tufayli jahonning buyuk shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlardan ajdodlarimiz huzur qilib kelganlar, hozir esa o'zimiz ham farzandlarimiz bilan birlgilidka bahramand bo'lib kelmoqdamiz. Muayyan ixtisoslikka doir ma'lumotga va yillar davomida to'planadigan tajribaga ega bo'lmay turib, tilga oid ma'lumoti bo'Imagan kishi, chet tilini yaxshi bilsa ham hech qachon yaxshi tarjimon bo'la olmaydi. U yoki bu darajada aqlli va dono kishilarning ma'lum bir matnni «Hech bir qiyin joyi yo'q», - deb bilib, tarjima qilishga urinishganlariga, biroq asliyatning birinchi sahifasini ochishlari bilan faqat professional tarjimon hal eta oladigan muammolar bilan to'qnash kelganlariga, o'z malakalari yetishmasliklariga iqror bo'lib, tarjimani chetga surib qo'yishganlariga hammamiz ham guvoh bo'lganmiz desam lof qilmagan bo'lamon. Nima uchun shunday bo'ladi?

Chunki professional tarjimon nafaqat chet tilini, balki ona tilida to'g'ri so'zlash va yozishni yaxshi biladi, u so'z boyligiga ega bo'libgina qolmay, ushbu boylikdan to'g'ri va mohirona foydalanishni biladi, muayyan kishining tarjima qilinishi kerak bo'lgan nutqini tarjima tilida talab darajasida bayon eta oladi. Axir ko'p hollarda xorijliklarning jonli tili adabiy bo'Imagan o'zbek tiliga emas, balki kitob tiliga tarjima qilinadi. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, tarjimon matnni to'g'ri tarjima qilishi uchun gap nima to'g'risida borayotganligini yetarlicha aniq tasavvur qilishi, teran bo'Imasa ham bayon etilayotgan mavzuga doir bilimlarga ega bo'lishi kerak. Shu bois umumiyl barkamollik, allomalik, keng saviya –yaxshi tarjimon tabiatida shakllangan sifatlar bo'lishi darkor. Kishining o'z ixtisosligiga oid bilimlari, agar u tarjimon sifatida tayyorgarlikdan o'tib, yetarlicha katta tajriba to'plasa, tegishli matnlarni tarjima qila olishiga omil bo'ladi.

Tarjimonlik kasbi azaldan eng nufuzli va zaruriy kasblardan biri sifatida e'tirof etib kelingan. Birinchi tarjimonlar qadimgi Misrda paydo bo'lganlar va o'sha uzoq zamonlardan e'tiboran obro'li odamlar qatoriga kiritilganlar. Sharq mamlakatlari bilan chambarchas aloqa bog'lagan qadimgi Gretsiyada esa chet tilini bilgan kishilar alohida mavqega ega bo'lganlar. Agar ular bo'Imaganlarida jahon xalqlarining madaniy boyligi sanaladigan Bibliyaning ko'p kitoblari ehtimol bo'Imagan bo'lar edi. Ma'lumki, Tavrotning aksariyat qismi faqat grek tarjimasida saqlanib qolgan. Qadimiyl Rusda (Rossiyada) tilmoch-rohiblar juda o'qimishli kishilar sifatida tan olinganlar, Napoleon Bonapart esa «Ikkita tilni bilgan askar ikki nafer jangchi o'rnnini bosadi», -deb ta'kidlab o'tgan.

Bugungi kunda xalqaro aloqalar shu qadar jadal kechib bormoqdaki, tarjima qilinishi kerak bo'lgan hujjatlar soni (asliyat hajmi) kun sayin ko'payib bormoqda. So'nggi yillarda og'zaki tarjimaning ham, yozma tarjimaning ham hajmi sezilarli ravishda ortib ketdi. Tarjimonlar safiga qo'shilganlar soni ko'paydi. Chet tili va tilshunoslikka oid ma'lumotga ega bo'lishni istaganlar sonining ortib borishi esa –tarjimonlik kasbiga talab hamon dolzarbigicha qolayotganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, professional tarjimon o'zini ko'rsata olishi mumkin bo'lgan sohalar bugungi kunda juda bisyor. U xohlasin faqat o'z ixtisosligi bo'yicha yoki misol uchun reklama, jurnalistika, turizmga oid biznesda ishlamoqchi bo'lsin – ish topadi. Yirik nashriyotlarda tarjimonha ehtiyoj doimo kuchli bo'lib kelgan. Modomiki, tarjimonlar oly o'quv muassasadagi besh yil o'qish davomida nafaqat tilshunoslik, balki filologik ma'lumotga ega bo'lar ekanlar bunday holatdan hayratlanishga hech bir sabab yo'q, albatta. Tadbirkorlik sohasi ham tarjimonlarni quchoq ochib kutib oladi. Til bilgan menejer o'z sohasida katta tajriba to'plagan oddiy menejerga nisbatan ko'proq qadrlanadi. Loaqlal ingliz tilini mukammal bilish xorijiy kompaniyaga ishga kirish uchun zaruriy shartlardan biri sanaladi. Bunday firmalarda to'lanadigan ish haqining miqdori sezilarli bo'lib, bundan tashqari firma xodimiga katta ijtimoiy imtiyozlar beriladi va eng nufuzli mahalliy shifoxonalardan birida bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi.[9]

### MUHOKAMA

Og'zaki tarjimonlar yozma tarjimonlarning yoki texnik adabiyot tarjimonlari badiiy adabiyot tarjimonlarining ishini bajara olishlari haqidagi fikr-mulohazalar ham uydirmadir. Muayyan bir mavzuga mansub tarjima boshqa mavzuga oid tarjimaga nisbatan oson kechadi, bir mavzuni tarjima qilgan har qanday tarjimon boshqa mavzuni ham tarjima qila oladi deyish ham noto'g'ridir. Turli ixtisosliklarga mansub shifokorlarni darajalarga ajratish biror ma'no ifodalamanligi kabi tarjimonlarni darajalar bilan farqlash ham shunchalik behuda. Nevrolog urologga nisbatan malakali shifokor deb biror-bir kishi da'vo qilmasa kerak. Tish kanaliga plomba solish iltimosi kardiologni qanday mushkul ahvolga solib qo'ysa, radiohavaskorlik darsligini tarjima qilib berish iltimosini eshitgan «Hamlet»ning tarjimonini rahmatli Cho'lpion ham shunday ahvolga tushib qolgan bo'lar edi. Ayni vaqtida radiotexnikaga oid mavzular tarjmoni «Gamlet»ni tarjima qila olishi amri maholdir. Agar tadrijiy tarjimonlar notiqning besh daqiqали nutqini yodida saqlab, boshqa tilda to'la-to'kis bayon eta bilish qobiliyatları bilan sinxron tarjimonlarni teztez hayratga solib tursalar, sinxron tarjimonlarning notiq bilan barobar so'zlab borish qibiliyatları oldida qolgan tarjimonlarning qoyil qolishi muqarrardir.[10]

Yuqorida zikr etilganday og'zaki tarjima sinxron va tadrijiy turlarga bo'linadi. Aksariyat buyurtmachilar har qanday og'zaki tarjimanini sinxron tarjima deb atab adashadilar. Aslida esa sinxron tarjima og'zaki tarjimaning maxsus, juda murakkab va qimmat turi sanaladi. Tadrijiy tarjimada nutq porsiyalarga bo'linib tarjima qilinadi, ya'ni: gapirayotgan odam jumlani yoki nutqining muayyan bir qismini talaffuz etgach, tarjimon uning gapini tarjima qilib bo'lganiga qadar gapirishdan to'xtaydi, so'ng so'zini yana davom etadi. Tarjimaning ushbu turi ish yuzasidan olib boriladigan muzokaralar, turli texnik montajlar, shahar bo'ylab ekskursiya kabi tadbirlar, bir so'z bilan aytganda – muloqot vaqt u qadar cheklanmagan, tomonlar fikr almashadigan vaziyatga ko'proq to'g'ri keladi. Sinxron tarjima esa o'z nomidan ko'rinish turganday, notiqning nutq o'qish jarayoni bilan sinxron kechadi, ya'ni: notiqning nutqi, tarjima qilinishi uchun, biror daqiqaga bo'lsin tinmaydi, tarjimon ham uzlusiz gapiradi. Shunga muvofiq, notiq bilan tarjimonning ovozlari qo'shilib ketmaslik maqsadida sinxron tarjima uchun qimmat turadigan maxsus asbob-uskuna va jihozlar qo'llaniladi (ikki nafar tarjimon kabinada o'tirishadi va bittasining ovozi quloplarga taqiladigan radio karnaychalar orqali tinglovchilarga translyasiya qilinadi).

Tarjimaning ushbu turi oliy darajada o'tkaziladigan uchrashuvlar, konferensiyalar, simpoziumlar va shu kabi rasmiy tadbirlarda qo'llaniladi. Nutqni tarjima qilish va sinxronligini ta'minlash uchun sinxron tarjimon notiqning yarim daqqaq oldin aytgan gapini mikrofonga talaffuz etib, bir vaqtning o'zida qulog'iga taqilgan radiokarnaycha orqali notiq so'zlarini tinglab boradi. Bu ish tarjimonidan zo'r g'ayrat va diqqat-e'tiborli bo'lishni talab qilishi bois oson kechmaydi, shuning uchun ham kabinada ikki nafar tarjimon o'tirib, har yarim soatda bir-birini almashtirib boradi (aks holda yolg'iz tarjimon bardoshi pand beradi).

Ushbu muammo, garchi adekvat tarjima ko'p jihatdan nafaqat asarni to'g'ri tushunib yetishga, balki uni his-tuyg'u ila, mazmuniga baho berib borgan tarzda idrok etishga bog'liq bo'lsa ham tarjima nazariyasida hali ilmiy asosga ega bo'Imagan. Takrorlanmas individualligini o'ziga mujassam etgan inson retseptor sifatida chiqar ekan –matn resepsiysi turli individlarda mutlaqo barobar bo'lmaydi. Bilim va tajriba zaxirasi, fikr yurgizish va his etish qobiliyati, tarbiya va ma'lumot, adabiy did va ishtiyoq, ona tilini o'zlashtirganlik saviyasi, muayyan ijtimoiy muhit va jamoa manfaatlarining o'tkazadigan ta'siri, dunyoqarash va shaxsiyat shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari hatto egizaklarda ham mutlaqo bir xil bo'lmaydi. Biroq, bu tavsiflar har xil odamlarda ko'p jihatdan mos kelishi, ushbu muvofiqlik darajasi aynan bir ijtimoiy guruh vakillarida ortib borishi tufayli o'zlashtirishda, misol uchun, badiiy asar mazmunini idrok etishda nisbiy bir xillik real mavjuddir.

Matndagi semantik va his-tuyg'uli mazmunning jamiki ob'yektiv hajmini anglab yetish imkonini beruvchi bilim va estetik idrok saviyasiga ega bo'lish reseptor sifatida chiqadigan tarjimon uchun juda muhimdir. Mabodo, tarjimon bilimlarining zaxirasi cheklangan, his-tuyg'uli tafakkuri zaif bo'lsa, matnni idrok etish qobiliyati unda yetishmay qolishi mumkin. Agar tarjimon o'xshash kamchiliklarga giriftor bo'Imagan bo'lsa, asliyatni nisbatan to'liq idrok etadi. Matnni idrok etish darajasidagi farq va ushbu jarayonning

## PEDAGOGIKA

individual-shaxsiy jihatdan o'ziga xosligida tafovut bo'lishi tufayli bitta asliyatning ayni bir vaqtida turlicha va aytarli ekvivalent tarjimalari yuzaga keladi.

Tarjimaning har bir turi va ko'rinishi asliyat matnini idrok etish bosqichida o'ziga xos jihatlar va xususiyatlarga egadir. Modomiki gap badiiy asar tarjimasi ustida borar ekan, ushbu bosqichkam deganda ikki qismdan iborat bo'lismi ko'sratib o'tish maqsadga muvoifiqdir. Ullardan biri tarjimaga qadar idrok deb ataladi. Bunda tarjimon badiiy asarni birinchi (goho ikkinchi va undan ortiq) bor o'qib chiqishi davomida idrok etadi, tushunish va «his etishga», uning badiiy qimmatini anglab yetishga intiladi, uslubiy jihatdan qanday shakllanganligini aniqlaydi, tarjima matni, ta'sirchanlik darajasi qanday bo'lishi, muayyan so'z, jumla, ibora, abzas kabilalar qanday tarjima qilinishi kerakligini belgilaydi.

Asliyat matnini idrok etish bosqichining ikkinchi qismida, ya'ni u tarjima qilinishidan oldin chet tilida bitilgan matnning jumlalarga bo'lingan resepsiyasi ro'y berayotganida, tarjimon, asliyatdagি alohida elementlar (so'zlar va so'z birikmalari) mazmunini va har bir jumla ma'nosini idrok etgancha tahlil va sintezni ishga soladi. Ayni vaqtida nafaqat matnni tushunib yetish, balki so'zlar vositasida «chizib berilgan» asar qahramonlari va vaziyatni ko'ra bilish tarjimon uchun juda muhimdir. So'z umumlashtirib beradigan vositagina xolos. So'z, kommunikasiyada ishtirok etayotganlar o'zlariga yaxshi ma'lum bo'lgan yoki ko'rinyotgan aniq narsalar, kishilar, jism yoxud ob'yektlar haqida gapirgandagina muayyan ma'noga ega bo'ladi. Shundagina asliyat tarjimasini yaratadigan va ushbu tarjimani kelajakda o'qiydigan o'quvchilar ongida muayyan tasavvurlar va aniq qahramonlar gavdalananadi. Aks holda o'quvchi ongida mavhum tasavvur shakllanadi. Agar biror-bir matn «Xonada stol turibdi» so'zlarini bilan boshlanadigan bo'lsa, «xona» ham, «stol» ham umumiyl tushuncha sifatida idrok etiladi. O'quvchilar ushbu «xona» va «stol»ni ko'rmaydilar, tasavvur etganlarida ham ularning har biri o'ziga qulay yo'sinda, ya'ni to'g'ri kelgan xona va duch kelgan stolni tasavvur etadilar. Matn so'zlarining tushuncha sifatida idrok etilishi o'z madaniyati, etnografik hayot tarzi va ijtimoiy tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladigan xalqlar tilida bitilgan matnlarni tarjima qilish imkoniyatini beradi.

Badiiy asar yaratgan yozuvchi asar qahramonlarini, undagi muayyan muhit, hodisa va shu kabilarni tasvirlar ekan aksariyat hollarda, ushbu ob'yektni tafsilotlarga bo'lib ko'rsatadi. Misol tariqasida «Ikkiti deraza yoritib turgan baland shiftli katta xonaning qoq o'rtasida oyoqlari o'yma naqshli, to'g'ri burchakli qora stol turar edi» jumlasini olaylik. Bunday matn nafaqat tushuncha sifatida idrok etiladi, balki o'quvchi ongida aniq tasavvur shakllanishiga omil bo'ladi. Tarjimon so'z vositasida chizilgan manzarani ko'radi, xona ham, stol ham yozuvchi qalami bilan nisbiy konkretlikka ega bo'ladi. Asar qahramonlari, harakat ro'y berayotgan joy, manzara, tabiat hodisisi kabilarga oid har qanday tafsilot –konkretlashtirish va individuallashtirish vositasi bo'lib, tarjimonning matnni aniq tasavvur bilan idrok etishiga turki beradi. Yozuvchi tasvirni tafsilotlarga bo'lib ko'rsatar ekan, mavhum tushunchani individual tushunchaga aylantiradi. Ushbu individuallikda umumlashtirilgan narsalar ham bisyor bo'lishi mumkin, albatta. Yozuvchi real namoyon bo'ladijan ko'p narsalarni muayyanlashtiradi, yagona bir tasvirga umumlashtiradi va adabiy asarning badiiy voqeiyligidagi ushbu tasvir yagona va konkret bo'lib qoladi.

Tarjima qilinishi kerak bo'lgan jumla zamiridagi semantik hamda his-tuyg'u va ta'sirchan axborotni idrok etgach, tarjimon, mazmun hajmini to'la saqlab qolishga intilganicha, ushbu axborotni tarjima tilining moddiy birliklari vositasida qaytadan yaratadi. U asliyatning har bir so'zi yoki so'z birliklariga mos keladigan so'z yoxud so'z birligini qidirmaydi (ayrimlar shunday qilish kerak deb o'laydilar), aksincha matn ma'nosini qaytadan va endi tarjima tilida ifodalaydi.

Asar matnini qaytadan ifodalab chiqish jarayoni yakuniga yetgach, tarjimani identifikasiyalash, ya'ni tarjima matniga ishlov berishga (uni sayqallashtirishga) o'tiladi. Tarjima jarayoni pirovardida ma'nosi hamda funksional-uslubiy va g'oyaviy-badiiy mazmuni jihatidan asliyatga aynan o'xshash (adekvat) badiiy asar yaratiladi. Bunda, tarjima qilingan har bir jumla va abzas asliyatdagи tegishli matn bilan sinchiklab taqqoslanadi, solishtirib chiqiladi. Bu esa, o'z navbatida, axborotning yo'qotilgan qismini topishga omil bo'ladi. Ayni shu davrda kerakli so'z qidirish, sintaktik manzaraga aniqlik kiritish, funksional-uslubiy va janrga oid muvoifiqlik, voqealarni to'g'ri tasvirlash, so'z o'yini, o'zbek adabiyotida o'ziga xos hodisaga aylanishi kutileyotgan tarjimaga yakuniy sayqal berish bilan bog'liq «ijod azoblari» boshlanadi. Davomiyligi asliyat matnining hajmi, til va adabiyotga oid qiyinchiliklar, shuningdek, tarjimon mahorati va tajribasiga bog'liq bo'lgan ushbu davrda qo'lyozma ustida olib borilgan ishlar nihoyasiga yetadi. Qayta o'qib chiqilganida esa unga deyarli sezilmash tuzatishlar kiritiladi.

Og'zaki tarjimonga oldindan ko'rgan tayyorgarligi yordam bera olishi mumkin xolos. Shu bois, muhtaram buyurtmachi, tarjimon taklif qilingan seminar yoki muzokaralarda gap nima to'g'risida borishi va tarjima mavzusi xususidagi materiallar so'ralsa ajablanmang. Bu tarjimonning malakasi past ekanligidan emas, aksincha bunday savollar tarjimonning professional ekanligi, o'z ishiga vijdoran yondashayotganligi haqida dalolat beradi. Shuning uchun ham tarjimonga (imkon qadar oldindan) tarjima mavzusiga oid, qaysi tilda (chet yoki o'zbek tilida) yozilgan bo'lismidan qat'iy nazar turli materiallarni, xususan: reklama

prospektlari, texnik tavsiflar, tadbir dasturi, ekranda namoyish etiladigan materiallar (prezentasiyalar), hattoki tadbirga doir oldin olib borilgan yozishmalarni havola etish lozim. Tayyorgarlik ko'rish uchun materiallar bo'lmasa tarjimon Internet vositasida tayyorgarlik ko'rishi mumkin, albatta, biroq buyurtmachi tomonidan havola etilgan materiallar ko'proq foydalidir, negaki ushbu ma'lumotlar tarjima mavzusining mazmuni va leksikasini aniqroq tasvirlab beradi.

Bozorning har bir segmenti, qo'yingki har bir sohasida aksariyat befoyda an'ana va yolg'on-yashiqlar bor. Masalan radio va teleuskunalar sotadigan sotuvchilar do'konlarida mavjud jamiki texnika Yaponiyada tayyorlangan deb, yoymachilar esa jinsini turklarniki, pardoz-andoz buyumlarini fransuzlarniki, poyafzalning hammasi Italiyadan keltirilgan deb xaridorlarni ishontirishga urinadilar. Xaridorlar esa, o'z navbatida, sotuvchilarning bunday bayonotlari marketingcha usul ekanligini yaxshi tushunadilar. Malakali texnik adabiyot tarjimonlari, odatda bitta, yetarlicha tor sohaga ixtisoslashadilar. «Texnik, yuridik, iqtisodiy, tibbiyotga oid va har qanday boshqa matnlarni tarjima qilaman»kabi e'lонlar professional tarjimonlarda shubha tug'diradi. Har bir maktab o'qituvchisi rus tili, matematika, geografiya va rasm darslarini bir xilda yaxshi o'qita olishi ehtimoldan qanchalik yiroq bo'lsa, bunday tarjimon mahoratiga ishonish ham shu qadar qiyindir.

Ma'lumki, til bu bizga meros bo'lib qoladigan madaniyatning dalili hamda uning bir qismidir. Darhaqiqat, xalqning madaniyati dastlab uning tilida aks etadi, aynan tilgina mazkur madaniyatning sirli qirralarini so'zlar orqali ochib beradi. Mutaxassislarning fikricha, turli xalqlar konseptlari bir-biridan farqlanadi. Dunyoda semantik jihatdan bir-biriga to'la mos keluvchi tillarning o'zi yo'qdir. Lekin qisman bo'lsa ham, semantik jihatdan mos keluvchi tillar mayuddir. Tillar semantikasining ayrim jihatlari bir-biriga o'xshamasligining sababi— turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, ilmiy-texnikaviy jarayoni, yashash sharoitlari turlicha ekanligi bilan izohlanadi. B. Genzel va M. Grevzlar ham: "Boshqa madaniyat egalarining dunyoqarashi, o'ylash, fikrashlari borasida tadqiqot olib borar ekamiz, biz nafaqat ular haqida, balki o'zimiz va o'z madaniyatimiz borasida ham e'tibor bermagan narsalarimiz haqida bilib olamiz", degan fikrlarni keltirib o'tadilar.[11]

Tilshunoslikda ritorika mavzusining ko'pgina qirralari, turli xalqlar tillarida uning milliy-madaniy xususiyatlari olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa-da, lekin ingliz va o'zbek tillari nutq madaniyati ritorik aspektida qasam ichishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi yoritilmaganligini kuzatish mumkin. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ham tilshunoslikning ushbu muammosini ochib berishdan iborat.

Oxford Thesaurus of English lug'atida ritorika so'zining sinonimik qatoriga oratory, eloquence, power of speech, command of language, expression, way with words, delivery, dictionkabi so'z va so'z birikmalar keltirilgan. Mazkur termin qadimda vozlik, balog'at san'ati, kalom ilmi, farosat ilmi, shirinso'zlik, ifodalilik, so'zga chechanlik, ishontirish san'ati kabi nomlarga ega bo'lsa-da, zamonaviy manbalar uni ritorika, so'zga chechanlik san'ati deb nomlaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida ritorika so'zi bu antik davrda va keyingi davrlarda notiqlik san'ati va umuman badiiy nasr haqidagi fan, notiqlik nazariyasi va san'ati, balandparvoz, tumtaroqli, lekin quruq, mazmunsiz nutq, bayon", deb izohlangan.[12]

### XULOSA

Bizning fikrimizcha, ritorika bu fikrni ifodali, ma'noli, ta'sirchan bayon eta olgan holda tinglovchilarga ta'sir etish, ularni mavzuga jalb qilish, qiziqtira olish va savobli ishlarga qo'l urushlariga unday olish san'atidir. Ritorika so'zlovchidan o'z tinglovchisini o'z maqsadlari sari yetaklash, ergashtirish, uni ishontira olish, uning ongiga va xatti-harakatlariga madaniyat doirasidan chiqmagan holda ta'sir o'tkaza olishlilikni talab qiladi.

Ritorika so'zlovchidan o'z tinglovchisini o'z maqsadlari sari yetaklash, ergashtirish, uni ishontira olish, uning ongiga va xatti-harakatlariga madaniyat doirasidan chiqmagan holda ta'sir o'tkaza olishlilikni talab qiladi.

Yu.V. Rojdestvenskiyning fikricha, hozirgi kun ritorikasi xujjalarni yozish va yuritish, monolog va dialoglarni ifoda etish qonun-qoidalarini, diskussiya, polemikalarni o'z ichiga oladi. Mazkur maqolada oddiy so'zlashuvda, ya'ni dialoglardagi ritorikaning xususiyatlari tadqiq etiladi. Ritorik aspektida, insonni biror-bir fikrga ishontirish, ma'lum bir ishga undashda qasam ichishning ham o'ziga xos ahamiyati borligi kuzatiladi. Qasam so'zi o'zining haqligi, so'zining to'g'riligi va shu kabilarni tasdiqlash, unga boshqalarni ishontirish uchun muqaddas narsalar, kimsalar nomini og'izga olib aytildigan mas'uliyatli so'z, ont kabi izohlanadi.[13] So'zlovchi qasam ichar ekan, u o'z so'zlarini rost ekanligini isbotlashga, tinglovchilar undan shabhalanmasliklariga harakat qiladi. Bunda u o'ziga eng yaqin, eng aziz bo'lgan insonlar, predmetlar, ilohiy kuchlarni o'rta ga qo'yib qasam ichishi kuzatiladi. Natijada, tinglovchining so'zlovchiga bo'lgan shubhalari kamayadi va ishonch tuyg'ulari oshadi.

PEDAGOGIKA

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
2. Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конигил. — Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2002. — 704 б.
3. Базаров Т.Ю., Ерофеев А.К., Шмелов А.Г. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. —Москва, 2014. № 1. Серия 14. Психология. — С. 87–99.
4. Алиев И.Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДГУ, 2013. —55 б.
5. Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДГУ, 2013. — 209 б.
6. “Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. — Тошкент, 2017. — 230 б.
7. Марина О.А. Структурные компоненты иноязычной профессиональной компетенции как профессионального стратегического ресурса // Педагогические образование и наука. — № 5. — Москва, 2014. — 113 р.
8. Закинов Э. Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогические образование и наука. — № 6. — Москва, 2014. — 82 б.
9. Мустафаева Ҳ. Инглиз тили грамматикасини ижтимоий-гуманитар факультетлар талабаларига ўргатишнинг лингводидактик хусусиятлари: Дис. пед.ф.н. — Самарқанд, 2003. — 8 б.
10. Мадрахимов Т. Инглиз тили сўзлашув нутқининг функционал-семантик хусусиятлари: Дис. фил.ф.н. — Тошкент, 2008. — 154 б.
11. Дондокова Р.П. Сущностная характеристика и структура коммуникативной компетентности // Вестник Бурятского Государственного университета. 1.1. 2012. — С. 19. Электронный ресурс: — URL: file:///C:/Users/LinK/Downloads/suschnostnaya-harakteristika-istruktura-kommunikativnoy-kompetentnosti.pdf. Дата обращения: 29.09.2019
12. Дондокова Р.П. Сущностная характеристика и структура коммуникативной компетентности // Вестник Бурятского Государственного университета. 1.1. 2012. — С. 19. Электронный ресурс: — URL: file:///C:/Users/LinK/Downloads/suschnostnaya-harakteristika-istruktura-kommunikativnoy\_kompetentnosti.pdf. Дата обращения: 29.09.2019